



XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA XIVA ADABIY MUHITIDA HABIBIYNING O‘RNI, “MARHABO” RADIFLI G‘AZALI TAHLILI

Kentayeva Gulmira Ismadiyarovna

Tashkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti I- bosqich tayanch doktoranti

Email:aytkulovaguli47gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr Xiva adabiy muhitining yetuk vakillaridan biri — Habibullo Oxund (Habibiy) ijodiga mansub g‘azalardan biri tahlil qilinadi. Asosiy e‘tibor “Ko‘nglumni xad etsang kelib har darddonim marhabo” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaldagi “marhabo” radifining badiiy, falsafiy va ruhiy ma‘nolarini ochishga qaratiladi. Shuningdek, g‘azalning shakl, mazmun va badiiy san‘at jihatlarini tahlil etilib, undagi tasavvufiy ramzlar izohlanadi.

Введение. В данной статье анализируется одно из газелей поэта Хабибулло Охунда (Хабибий) — выдающегося представителя литературной среды Хивы XIX века. Особое внимание уделяется газели, начинающейся строкой «Ko‘nglumni xad etsang kelib, har darddonim, marhabo», с целью раскрыть художественное, философское и духовное значение слова «marhabo», используемого в качестве рефрена. Кроме того, рассматриваются форма, содержание и художественные особенности произведения, а также разъясняются суфийские символы, присутствующие в нём. В статье также анализируются характерные для лирики Хабибия эмоциональные состояния, идеи божественной и человеческой любви, духовного очищения, а также определяется место поэта в рамках хивинской литературной школы.



Introduction. This article analyzes one of the ghazals by Habibullo Oxund (Habibiy) — a prominent representative of the literary environment of Khiva in the 19th century. The focus is on the ghazal beginning with the verse “Ko‘nglumni xad etsang kelib, har darddonim, marhabo”, particularly on exploring the artistic, philosophical, and spiritual meanings of the word “marhabo” used as a refrain. Furthermore, the study examines the form, content, and artistic features of the poem and explains the Sufi symbols embedded within it. The article also discusses the emotional states typical of Habibiy’s lyric poetry, the idea of divine and human love, and spiritual purification, as well as the poet’s place within the Khiva literary school.

Kalit so‘zlar: Habibiy, Xiva adabiy muhiti, g‘azal, radif, tasavvuf, ilohiy ishq, badiiy tahlil.

Ключевые слова: Хабибий, литературная среда Хивы, газель, радиф, суфизм, божественная любовь, художественный анализ.

Keywords: Habibiy, Khiva literary environment, ghazal, radif, Sufism, divine love, artistic analysis.

XIX oxiri XX asr boshlarida butun Turkistonda ham siyosiy, ham iqtisodiy va adabiy muhitda tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davrga kelib barcha xonlik va amrliklarda yuz bergan adabiy hayot jadidchilik ruhi asnosida paydo bo‘lgan. Xususan, Xiva xonligi adabiy maydoni eng sarmahsul ijod namunalari yaratilgan adabiyot o‘chog‘i bo‘lib xizmat qildi. Bunda esa shoh va shoir, ilm homiysi Muhammad Rahimxon II Feruzning o‘rni beqiyosdir. Bayoniy buni shunday ta’rif etadi: “Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlari ulamo bilan suhbat tuzub, kitobxonliq etdurur erdilar. Goho domla Muhammadrasul bila ikkovimiz kirib, suhbati humoyunlarida kitobxonliq bo‘lur erdi va sipohiyalar va to‘ralarni ham kitobxonliq etarga targ‘ib etar



edilar. Bas, hamma kitobxon bo‘ldilar”.¹ Shundan ham anglash mumkinki, yaratilgan keng ijodiy muhit shoh-u fuqaroni she‘r tabiatiga nozikdidli qildi. Feruz yaratgan adabiy muhit sabab, Xivada ham ko‘plab ijodkorlar va tarjimonlar bo‘lgan. Buni raqamlarda ko‘rib chiqsak, saroy atrofida eng ko‘zga ko‘ringan 180 ga yaqin shoir va Xivaning o‘zida 80 ta tarjimon bo‘lgan. Bundan ko‘rinadiki, she‘riyatdagi raqobatlar ham ancha faol bo‘lgan. Badiiy ijodda she‘riyat salmoqli o‘ringa ega bo‘lib, uning mazmunini ishqiy-axloqiy motivlar tashkil etardi. Shu bilan birga, adabiy jarayondagi jonlanish an’anaviy mavzularning yanada boyishida, janrlarning shakliy rang-baranglashuvi, umuman, badiiy ijod ijtimoiy estetik ahamiyatining oshishida ko‘rinadi. Xiva adabiy muhiti haqida so‘z borar ekan, Habibullo Oxund (Habibiy) haqida ham alohida to‘xtalib o‘tmog‘imiz zarurdir. Habibullo Oxund — XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod qilgan, Xorazm adabiy muhitining taniqli vakillaridan biri hisoblanadi. U “Habib” taxallusi bilan mashhur bo‘lgan va ko‘proq she‘riy asarlari bilan tanilgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva adabiy muhiti Markaziy Osiyo madaniyatining muhim markazlaridan biri sifatida shakllandi. Bu davrda Komil Xorazmiy, Bayoniy, Avaz O‘tar, Muhammad Rahimxon Feruz singari ijodkorlar bilan bir qatorda Habibullo Oxund, taxallusi bilan Habibiy nomi bilan tanilgan shoir ham o‘zining nafis g‘azallari, diniy-ma‘rifiy ruhdagi asarlari bilan e‘tibor qozongan. Uning asarlari, ayniqsa, ishq va tasavvuf uyg‘unligidagi g‘azallar, Xorazm adabiy maktabining o‘ziga xos uslubini ifodalaydi.

Habibiy ijodida ko‘plab g‘azallar mavjud bo‘lib, ularning aksariyatida radif muhim badiiy vosita sifatida ishlatiladi. Ana shunday g‘azallardan biri “Ko‘nglumni xad etsang kelib har darddonim marhabo” bayti bilan boshlanadigan, “marhabo” radifli g‘azaldir. Ushbu maqolada mazkur g‘azalning shakliy va ma‘naviy qatlamlari

¹ Rahmonov N. Xiva adabiy muhiti va Feruz davri. – Urganch : Xorazm, 2015. – 175 b.



tahlil qilinadi. Habibiy ijodi Xiva xonligi adabiy muhitida yetakchi o‘rinlarni egallagan. Bunga misol qilib Feruz o‘zidan ilgari yashab o‘tgan Qo‘qon xoni Amir Umarxon “Amiriy” buyrug‘i bilan tuzilgan “Majmuatu Shuaro” tazkirasidan ilhomlanib, Tabibiyga ham Xiva xonligida yashab ijod qilgan shoirlar antalogiyasini tuzishni buyrug‘ini beradi. Bu tazkiraning asosiy muhim shartlaridan biri shoirlar devon tartib bergan bo‘lishlari lozim edi. Har bir davrda devon tartiblagan ijodkor salobatli hisoblangan². Tabibiyning “Majmuat ush-shuaro payravi Feruz shohiy” tazkirasida 30 ta shoir haqida qisqacha, ma’lumot va shoirning g‘azallaridan namunalar keltirib o‘tilgan. Xususan, Habibiy ham ushbu tazkiradan joy olgan bo‘lib, shoirning devon tartib bergani, uning fe’lida biroz kamsuqumlik ko‘rinishini tabiati, so‘z tanlashdagi didi yuqoriligini ta’rif etadi. Keng ijodiy muhitdan faqatgina sanoqli shoirlarning bu tazkiraga kirishi orqali ham bilishimiz mumkinki, Habibullo Oxund ijod olami salmoqli bo‘lgan. Habibullo Oxund, taxallusi Habibiy, XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Xorazmda yashagan shoir va diniy-ma’rifiy ziyoli bo‘lib, Xiva adabiy muhitining faol vakillaridan biri hisoblanadi. Uning hayoti haqida tazkira manbalarida berilgan ma’lumotlarga qaraganda, u kambag‘al oilada tug‘ilgan, diniy maktabda tahsil olgan, biroq moddiy yetishmovchilik sabab tahsilini vaqtincha to‘xtatgan. Biroq keyinchalik ta’limni davom ettirib, o‘z zamonasining saviyasi baland shoirlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Habibiy Xivada kambag‘al oilada tug‘ilgan. O‘qib izlanishga bo‘lgan zavqi tufayli otasidan ruxsat olib, madrasa ta’limini ko‘radi. Lekin oilada yuz bergan iqtisodiy qiyinchiliklar va otasining vafoti tufayli u ta’limni to‘xtatishga majbur bo‘ladi. Yana ba’zi Qur’on xatmi to‘liq bo‘lgandan keyin tahsilni to‘xtatgan degan ma’lumotlar ham beriladi. Iqtisodiy nochorlik sabab u dehqonchilik bilan shug‘ullanib, katta oilasini ta’minotini qiladi. Lekin adabiyotga bo‘lgan qiziqishi turmush zarbalaridan ham sinmagan shoir, farzandlari balog‘atga yetkanda 40 yoshida tahsilni davom ettirib, el orasida nomi chiqqan shoirga aylanadi. Xiva

² Shoniyozov K. Xiva xonligi tarixi manbalari. – Toshkent : Fan, 1999. – 280 b.



adabiy jarayonida muhim sanalgan har ikkala tazkirada ham Habibiyning alohida zikr qilinishi uning ijodkor sifatida yuqori maqomda turganini anglatadi. U o'z g'azallarini asosan payrav qilib yozadi. Ayniqsa, Feruzning "Paydo" radifli g'azaliga yozgan payravi juda mashhurdir. Habibiy o'z devonini ham aynan shu "Paydo" radifli g'azali bilan boshlaydi. Shoirning "Devoni Habib" asari bizgacha yetib kelgan. Bu qo'lyozma hozirda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari universitetida N946 raqam bilan saqlanadi. Ushbu devon hamd bilan boshlanib, Allohga qullik qilish naqadar go'zalligini, shoir o'zining bandaligi qulligi eng yuqori maqomda ekanini aytib faxr tuyg'usini tuyadi. Agar Alloh rahmat qilib "Lutf qo'lini cho'zmasa", uning qo'lidan hech ish kelmasligini nola bilan bayon qiladi. Habib devoni g'azal, muhammas, musaddas va qasida janrlaridan iboratdir. Devonning o'ziga xosliklaridan yana bir jihati har bir janr tartib raqam bilan xattot tomonidan belgilab ketilgan. Bu ham Xiva xonligi adabiy muhitining o'ziga xosliklaridan biridir. Ko'plab shoirlar singari Habibiy ham Xiva adabiy muhitida yaratilgan erkin ijod olamida salmoqli ijod qilgan shoirdir. Uning yozgan devoni ham XIX oxiri XX asr boshlaridagi jadidchilik ruhi bilan yozilgan she'riy namunalarning eng saralari jam bo'lgan ijod mahsulidir. O'z zamondoshlarining orasida ham u tartib bergan devon mashhurlikka erishganini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Bir so'z bilan aytganda Feruz yaratgan adabiy muhit barcha shoir va ijod ahillari uchun eng sermahsul ijod namunalaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Ko'nglumni xad etsang kelib, har darddonim marhabo,

Xabar ol g'amidin qutqarib bu xatar jonim marhabo.

Erdi firoq mehrdin bir necha kun jonsiz tanim,

Kirdi tanimg'a toza joydin ruh ravonim marhabo.

Vaslingni aytib tan qolsam har sahar qon yig'ladim,



Ko‘k gunbazig‘a tegar deb, oh fig‘onim marhabo.

Bo‘ldi ko‘ngul qanoatda oh ayladi dog‘im har degil,

Er aylading bu bog‘ aro bu la‘fonim marhabo.

Ag‘yor ta‘n nasibdin dog‘ ayrdi ko‘kamladik,

Vasling bila mahv aylading dog‘ nayonim marhabo.

Bir ko‘rgani keldik yuzing bulbul kishi afg‘on chekib,

Silab o‘tkim o‘zingg‘a to‘kuldi qonim marhabo.

Istab Habib o‘lmoq uchun qalbimg‘a kelding bu kecha,

Jonim nahr naqrabing qoshi kamonim marhabo.

G‘azal yetti baytdan iborat bo‘lib, har baytning ikkinchi misrasi “marhabo” radifi bilan yakunlanadi. Qofiyalar esa “–donim / –jonim / –tanim / –fig‘onim / –la‘fonim / –nayonim / –qonim / –kamonim” tarzida uyg‘unlik hosil qiladi. Radifning takrorlanishi g‘azal ohangini, ritmini mustahkamlaydi va shoirning ichki tuyg‘ularini ta‘kidlaydi.

“Marhabo” radifining badiiy vazifasi

“Marhabo” so‘zi arabcha bo‘lib, “xush kelibsiz”, “rahmat”, “xushnudlik” ma‘nolarini bildiradi. Habibiy bu so‘zni ruhiy uyg‘onish, yorning kelishi va Haqning zuhurini ifodalovchi timsol sifatida ishlatgan. Har bayt oxirida “marhabo” so‘zining takrorlanishi oshiqning har bir iztirobida ham, har bir shodligida ham Haqni tan olish, unga shukr qilish ohangini yaratadi.

G‘azalda tasavvufiy ma‘nolar

Habibiy ijodida ilohiy ishq g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi. G‘azaldagi “dard”, “g‘am”, “ruh”, “oh-fig‘on”, “jon” kabi so‘zlar tasavvufiy ishq yo‘lida



bandaning sinovlarini ifodalaydi. Yor — Haq, oshiq — banda obrazlarida gʻazal maʼrifiy-mistik qatlam kasb etadi. Masalan, “Erdi firoq mehrdin bir necha kun jonsiz tanim” misrasi ilohiy firoq iztirobini, “Kirdi tanimgʻa toza joydin ruh ravonim marhabo” esa vasl orqali ruhiy poklanishni ifodalaydi. Habibiyning “marhabo” radifli gʻazalida radif va qofiya oʻrtasidagi uygʻunlik grammatik shakl orqali chuqur semantik mazmun kasb etadi. Gʻazalda “marhabo” radifi oldidan keluvchi qofiyalar — –donim, –jonim, –tanim, –figʻonim, –laʼfonim, –nayonim, –qonim, –kamonim — barchasi egalik qoʻshimchasi (-im) bilan tugagan. Ushbu shakl shoirning ichki “men”ini, yaʼni bandalik va ixlos holatini ifodalaydi.

Egalik shakli gʻazalda banda (oshigʻ) nuqtai nazaridan xolislik, oʻzini Haqqa nisbat berish va taslimlik maʼnolarini kuchaytiradi. Masalan, “daraddonim marhabo” — mening dardim, mening azobim — Haqdan, unga ham “marhabo” (xush kelibsiz); “jonim marhabo” — jonim (Alloh yoʻlida fido boʻlayotgan jonim) — ham Haqqa atalgani uchun “marhabo”. Demak, egalik shakli bu yerda ishq yoʻlida oʻzini Allohga topshirgan oshiqning ichki “men”ini ifodalaydi.

Masalan, quyidagi qofiyadosh soʻzlar buni aniq koʻrsatadi:

- daraddonim marhabo — dardimni ham xush koʻraman;
- jonim marhabo — jonimni fido qilaman;
- tanim marhabo — jonsiz tanimga ruh kirsam;
- figʻonim marhabo — firoqdagi ohimni ham qabul etaman;
- qonim marhabo — ishq yoʻlida toʻkilgan qonimni ham Haqqa nisbat beraman.

Natijada, Habibiyning “marhabo” radifli gʻazalida qofiyadosh soʻzlarning egalik shakli subyektiv “men”ni — bandalik, iztirob va ixlosni bildirsam, “marhabo” radifi esa bu “men”ning Haqqa boʻlgan taslimligi va rozi boʻlishini poetik tarzda



ifodalaydi. Shu tariqa, radif va qofiya o'rtasidagi grammatik hamda semantik uyg'unlik tasavvufiy ruhda yuksak badiiy ifodaga ega bo'ladi.

Badiiy san'atlar

G'azalda tashbeh, isti'ora, tajnis, tazod kabi san'atlar faol qo'llangan. "Ko'k gunbazig'a tegar deb oh fig'onim marhabo" misrasida mubolag'a va tazod san'atlari bilan oshiqning iztirobi kuchaytirilgan. "Bulbul", "bog'", "kamon", "qon" kabi timsollar esa ishqiy an'anaviy ramzlar tizimini tashkil etadi.

Xulosa

Habibiyning "marhabo" radifli g'azali shoirning nafaqat lirik mahoratini, balki tasavvufiy tafakkur chuqurligini ham namoyon etadi. G'azal orqali insonning ichki ruhiy kechinmalari, sabr va vasl orzusidagi iztiroblari yuksak poetik ifodasini topgan. "Marhabo" radifi esa yorning, ya'ni Haqning kelishi bilan bandaning ruhiy uyg'unish holatini ifodalaydi. Shu jihatdan mazkur g'azal Habibiy poetikasining eng nozik va falsafiy namunalari qatoridan joy oladi.

Adabiyotlar

1. Habibullo Oxund (Habibiy). Devon. Qo'lyozma nusxalari asosida tahlil. – Toshkent: O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondi. – Qo'lyozma N 946.
2. Ismatullayev, N. Xorazm mumtoz adabiyoti va tasavvuf. – Urganch: UrDU nashriyoti, 2018. – 214 b.
3. Karimov, B. Xiva adabiy muhitining shakllanishi va taraqqiyoti. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2010. – 198 b.
4. Komilov, N. Tasavvuf va adabiyot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – 240 b.
5. Rahmonov, N. Xiva adabiy muhiti va Feruz davri. – Urganch: Xorazm, 2015. – 175 b.
6. Shoniyozov, K. Xiva xonligi tarixi manbalari. – Toshkent: Fan, 1999. – 280 b.